



BUXORONING JAHON MADANIYATIDAGI O`RNI

RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ONLAYN ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA

2020,
27-aprel

KONFERENSIYA
MATERIALLARI

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

**“БУХОРОНИНГ ЖАҲОН
МАДАНИЯТИДАГИ ЎРНИ”**

*мавзусидаги Республика миқёсидаги онлайн илмий-амалий
анжуман*

МАТЕРИАЛЛАРИ

БУХОРО – 2020

Илмий – амалий анжуман Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги тасарруфидаги олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасаларида 2020 йилда Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 7 февралдаги № 56-ф сонли фармойиши асосида Бухоро давлат университетида 2020 йилнинг 27 апрель куни **“Бухоронинг жаҳон маданиятидаги ўрни”** мавзусида Республика миқёсида **онлайн** илмий-амалий анжумани белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Х.Х.Тўраев

Таҳрир хайъати:

**Бухоро давлат университети ректори,
иқтисод фанлари доктори**

О.Х.Ҳамидов

**Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор,
иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
доцент**

О.С.Қаҳҳоров

Тарих ва маданий мерос факультети декани в.в.б.

Ж.Р.Жўраев

**Бухоро тарихи кафедраси мудири в.в.б. тарих
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)**

Ф.У.Темиров

**Бухоро тарихи кафедраси доценти,
тарих фанлари номзоди**

М.Б.Қурбонова

**Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)**

Д.М.Жамолова

Тўплаб нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Бухоро тарихи кафедраси мудири в.в.б., т.ф.ф.д., (PhD)

Болтаев А.Ҳ. – Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мубинов М.А. – Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

***Илмий-амалий анжуман материалларида чоп этилаётган
мақола ва тезислардаги матн, манба ва адабиётлар учун
муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар***

Зарафшон областининг Тошкўприк ва Найман волостларида бирига қариндош бўлган бадир ва садир уруғи вакиллари яшаган¹. Зарафшон вилояти учун характерланадиган жихат бу ерда икки уруғ: бадир ва садир ўртасида миллий низонинг мавжудлигидир. Бу ерда совет тузумига қарши кураш асосан бадир уруғи вакиллари томонидан олиб борилган. Бухоро кўрбошилари орасидан бадир уруғига мансублари ҳам бўлган. Бадир уруғининг кўзга кўринган кўрбошиларида 1920 йилда қизил армия томонидан отиб ўлдирилган Ҳайдар Мерган, Қора Мерган, Рустам Мерган ва маълум муддат яшириниб юриб, 1925 йилдан кейин ҳаракатни яна кучайтирган Рўзи Мерганларни санаб ўтиш мумкин².

Бадир уруғи вакиллари совет тузумига қарши курашса, садир уруғи вакиллари эса аксинча, совет ҳокимияти идораларида хизмат қилган. Садир гуруҳининг раҳбари ўз хизмат мавқеидан фойдаланиб (ижроия қўмитаси раисининг ўринбосари), ўзига қарши бўлган бадирларга нисбатан ҳар хил тарзда тазйиқ ўтказди. Масалан, ўзларига нисбатан солиқлар кўпроқ ундирилган ва турли босимлар ўтказиб турилган³. Бу ҳар доим икки уруғ ўртасида муносабатларни кескинлашувига, зиддиятларнинг тобора кучайишига ва ҳатто икки уруғ ўртасида қуролли тўқнашувлар юз беришига ҳам олиб келган⁴. Бу каби ҳолатлар Бухоро областида миллий низоларнинг бир кўриниши эди.

Хуллас, 1926 йилдан кейинги йилларда ҳам Бухорода совет ҳокимиятига қарши кураш Ражаб бобо, Мулла Деҳқон ва Рамазон Раҳимовлар раҳбарлигида давом эттирилди. Бироқ улар ташкил этган гуруҳлар кенг оммани қамраб ололмади. 1932 йилда Бухорода совет ҳокимиятига қарши кураш асосан мағлубиятга учради. Ҳаракат раҳбарлари ўзлари истаган мақсад ва вазифаларини амалга ошира олмади.

BUXORO AMIRLARINING SOG'LIQNI SAQLASHGA OID CHORATADBIRLARI

*Baqoyev U.
Bux.DU talabasi.*

Buxoro amirligida fuqarolarning salomatligini ta'minlash, turli yuqumli kasalliklarning oldini olish, sog'liqni saqlash ishlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, mahalliy tabiblar tomonidan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatilgan. Davolash pullik bo'lib, boylar, o'rta hol va kambag'allardan sharoitiga qarab turli miqdorda olingan. Bunday tartib aholining barcha qatlamlariga tibbiy xizmatdan foydalanish imkonini bergan.

¹ Ўзбекистон ПАА, 58-фонд, 1-рўйхат, 576-иш, 313-варақ.

² Ўзбекистон ПАА, 58-фонд, 1-рўйхат, 576-иш, 313-варақ.

³ «СОВЕРШЕННО СЕКРЕТНО»: Лубянка – Сталину о положении в стране (1922-1934 гг.). Т. 3. 1925 г. Ч.2. – Москва, 2002. – С. 697-698.

⁴ Ўзбекистон ПАА, 58-фонд, 1-рўйхат, 576-иш, 313-варақ.

1868 yilda Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasiga aylantirilgach, ruslarni ko'chirib keltirish siyosati boshlandi. Aynan shu davrdan boshlab, ularning sog'lig'ini nazorat qilish ushuni shifokorlar ham olib kelindi. Buning natijasida esa yevropacha davolash usullari ham amirlik hududida keng tarqala boshladi.

Buxoro amirlaridan Abdulahadxon (1885-1910) va Olimxon (1910-1920)lar zamonaviy kasalxonalar qurish, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish ishlarini yaxshilash borasida amaliy tadbirlarni amalga oshirganlar. Jumladan, Amir Abdulahadxon 1889 yilda mamlakatda bezgak kasali tarqalganda, Rossiyadan 6000 rubllik dori-darmon sotib olgan va mutaxassislar tomonidan mamlakatning kasallik keng tarqalgan hududlarida o'z vaqtida davolash muolajalari amalga oshirilgan¹.

1897 yilda Buxoro amirligida "hind vabosi" tarqaladi. Bu kasallik doimiy ravishda Buxoroda sudxo'rlik va savdo ishlari bilan shug'ullangan hindlar bilan kirib kelgan. Amir Abdulahadxon mamlakatda kasallikning tarqalib ketishini oldini olish maqsadida chegaralardan hindlarni kiritmaslikka qat'iy amr bergan². Ammo hindlarning turli yo'llar bilan Buxoroga kirib kelishi davom etavergach, amir qozikalon va devonbegi bilan maslahat kengashi o'tkazadi. Kengash qaroriga ko'ra afg'on chegaralarida harbiy qo'riqshilar joylashtiriladi va hindlarning mamlakat hududiga kirib kelishi to'xtatiladi³. Shuningdek, buxoroliklarning Haj safariga borishlariga ruxsat berilmaydi⁴.

Amir Abdulahadxon aholining imkoniyati cheklangan, nogiron qatlamiga ham alohida e'tibor qaratib, shaharning Fathobod mavzesida maxsus pansionat tashkil qilgan va ularni kuniga ikki mahal issiq ovqat bilan ta'minlagan⁵. Buxoro shahrida amir homiyligi va nazorati ostida zamonaviy shifoxona va dorixona ham faoliyat yuritgan⁶.

Amir Olimxon sog'liqni saqlash borasida otasi yuritgan siyosatni davom ettiradi. Uning tashabbusi bilan 1911 yil iyul oyida Buxoro shahrida ayollar shifoxonasi ochiladi. Unda rus millatiga mansub ayol shifokor 1911 yil davomida 3551 nafar ayollar va bolalarga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, 1912 yilda 13551 nafar bemorlarni davolaydi. 1912 yilda shifoxona yonida tug'ruqxona ham qurilgan⁷.

Amir Olimxon 1913-1916 yillar davomida Eski Buxoro, Karki, Chorjo'y, Hisor, Dushanbe, Qarshi va Shahrisabzda erkaklar va ayollar uchun ambulatoriya

¹ Buxoro // "Tarjimon", 1889 yil 17 dekabr. - № 44.

² Buxoro // "Tarjimon", 1897 yil 17 fevral. - № 7.

³ Buxoro sharif (maktub) // "Tarjimon", 1897 yil 3 mart. - № 9.

⁴ Doxiliya xabarlarini // "Tarjimon", 1897 yil 11 mart. - № 10.

⁵ Jamolova D. Buxoro amiri Abdulahadxon va uning siyosiy faoliyati // O'zbekiston tarixi, 2018. № 1. - B. 37.

⁶ Ismoilbek G'asparali. Turkiston sayohatlari (Qrim-tatar tilidan Tohir Qahhor tarjimai) // "Jahon adabiyoti" (Toshkent), 2010. - № 10. - B. 92.

⁷ Jamolova D. Amir Olimxonning Buxoro amirligidagi islohot farmonlari // O'zbekiston tarixi, 2017. № 2. - B. 62.

punktleri va kasalxonalar qurdiradi¹. Eski Buxoroda ayollar ambulatoriya punkti va shifoxona bo'lib, u amirlikdagi eng katta shifoxona edi. Buxoro hukumati bu shifoxona faoliyati uchun har yili xazinadan 31173 rubl 50 tiyin mablag' ajratgan. Qarshi, Dushanbe, Shahrisabzdagi shifoxonalar ta'minoti ushun esa 12 ming rubl pul ajratilgan. Shifoxonadagi mutaxassislar rus millatiga mansub bo'lib, vrachlar har yili amir xazinasidan 4000 rublgacha, feldsherlar 1750 rublgacha maosh olishgan².

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirlari Abdulahadxon va Olimxonlar aholining tibbiy salomatligini ta'minlashni davlat siyosati darajasiga ko'tarishdi. Ularning tashabbusi bilan Buxoro shahri va bekliklarda kasalxona hamda dorixonalar ochildi; jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan qismi – nogironlarga g'amxo'rlik qilindi. Yuqumli kasalliklarni oldini olish va davolash uchun zamonaviy tibbiy anjom hamda vositalardan foydalanish yo'lga qo'yildi.

СОМОНИЙЛАР ДАВРИДА БУХОРОДА АДАБИЙ ҲАЁТ

Джусраева Ф.Х.

*Бухоро шаҳар 8-ўрта умумтаълим
мактаби ўқитувчиси*

Бухоро Буюк Ипак йўлидаги муҳим жуғрофий шаҳарлардан бири, форсий ва туркий тиллардаги адабиётларнинг ривож ва бойишида катта аҳамиятга эга бўлган. Қадимги суғд ҳужжатлари ва хатларини ўрганиш бу ерда истиқомат қилган халқларнинг юксак бадиий дидга эга бўлганлигини кўрсатади. Уларнинг гап-сўзлари ҳикматли ибора, турли қочирим ва кинояларга бой бўлган. Қадимги даврлар ва араблар фатҳига қадар бўлган замонлардан бизгача ўша даврларга тегишли адабий-бадиий ёзма асарлар яхлит ҳолда етиб келмаган бўлса ҳам, лекин паҳлавон Рустам тўғрисидаги дostonларнинг бизга маълум парчалари ҳамда Сиёвушнинг фожиали тақдири, унинг ёрқин шахсияти билан боғлиқ қиссалар ва уларнинг халқ орасида кенг тарқалгани бу диёрда бадиий ижод юксак даражада бўлганидан дарак беради.

Араблар фатҳидан сўнг Бухорода араб тилини жорий этиш ва адабиётни араб тилида ривожлантириш бўйича қаттиқ уринишлар бўлди. Яқин Шарқ мамлакатлари билан маданий, илмий ва адабий алоқаларни, хусусан, диний муносабатларни кучайтиришга алоҳида эътибор берилди. Жуда қисқа вақт ичида Бухоро исломнинг Шарқдаги йирик марказларидан бирига айланди. Шу пайтда бухоролик буюк илоҳиётчи олим Имом Исмоил ал-Бухорий Пайғамбар Муҳаммад (с.а.в) ҳадисларидан 600 мингини йиғиб, улардан 7275 тасини энг ишончли деб билгани ва шу асосда тўрт жилдли “Жомий ас-саҳиҳ” китобини тузгани катта воқеа бўлган эди. Бухородаги

¹ Jamolova D. Amir Olimxonning Buxoro amirligidagi islohot farmonlari. – B. 63.

² Jamolova D. Amir Olimxonning Buxoro amirligidagi islohot farmonlari. – B. 64.

МУНДАРИЖА

О.Х.Хамидов .“БУХОРО – ШАРҚ ДУРДОНАСИ”	3
--	---

БУХОРО АРХЕОЛОГИЯСИ, ЭТНОГРАФИЯСИ ВА ТОПОНИМИКАСИ

5

Бобожонова С.У. БУХОРОДАГИ БИРИНЧИ ДОРИХОНА	5
Jumaeva N. BUXORO VONASI TOPONIMIKASI HAQIDA BA'ZI MULONAZALAR	7
Қорғғдиев З.О. БУХОРО ЛЎЛИЛАРИНИНГ ХЎЖАЛИК МАШҒУЛОТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР	9
Қурбонова М., Норова Д. БУХОРО ДАРВЕШЛАРИНИНГ АНЪАНАВИЙ ҲИРҚАСИ	13
Murtazoyeva N.J. THE ARCHEOLOGY, ETNOGRAPHY AND TOPONYMY OF BUKHARA	16
Нафиддинова Х.Р. БУХОРО ШАҲРИДА НИКОҲ ТЎЙЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	19
Очилов А.Т. ҚИЗИЛҚИР ЁДГОРЛИГИНИНГ АРХЕОЛОГИК АСОСЛАРИ	22
Samadov G.Z. BUXORO VONASI AHOLISINING KOSMOGONIK TASAVVURLARI	25
Тўраев А.И. БУХОРО ВОҲАСИ ЧАНДИР ТУРКМАНЛАРИНИНГ ЭТНИК ТАРИХИДАН ЛАВҲАЛАР.....	28
Қурбонова М.Б., Умаров Б.Б. Н.А.КИСЛЯКОВ ТАРИХ-ЭТНОГРАФИЯ МАКТАБИНИНГ ЙИРИК ВАКИЛИ	32
Хасанова Г.К., Раджабова Ш.Р. ИСТОРИЯ ЭТНОГРАФИИ АРХЕОЛОГИИ БУХАРЫ.....	35
Юсупова М.Ў. БУХОРО ВОҲАСИ МАРОСИМЛАРИ ВА УЛАРНИ ЎРГАНИЛИШИ БЎЙИЧА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	37


БУХОРО ВОҲАСИДА ДАВЛАТЧИЛИК АСОСЛАРИ, ШАҲАРСОЗЛИК, МОДДИЙ ВА МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТ МАСАЛАЛАРИ.....

41

Alimova Sh.B. AMIR TEMUR VA MIRZO ULUG'BEKNING BUXORODA ILM-FAN VA MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA QO'SHGAN HISSALARI	41
Бобожонова Ф.Х. БУХОРО МАДРАСАЛАРИНИНГ ЖАҲОНИЙ ШУҲРАТИ.....	44
Бобоев Ф. БУХОРОДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИГА ҚАРШИ КУРАШ	47
Baqoyev U. BUXORO AMIRLARINING SOG'LIQNI SAQLASHGA OID CHORA-TADBIRLARI.....	51



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
HUKUMATI MAHSUS
TAYINLANISH VAZIRLIGI



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
HUKUMATI
TAYINLANISH VAZIRLIGI

SERTIFIKAT

Baqoyev U.

"BUXORONING JAHON MADANIYATIDAGI O'RNI"
mavzusida Respublika miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy
konferensiyada ishtirok etganligi uchun taqdirlanadi.



<http://www.buxdu.uz>



O.X. NAMIDOV
Buxoro davlat universiteti
rektori



2020 yil 27 aprel, Buxoro